

# SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ S/5 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

---

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

---

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ**

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SPI1342V3SI5Y2023

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 5/5 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

#### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

### **Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Кайпова Малика Дауытбай қизи*  
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ ТАРИХИЙ МАДАНИЙ ОБЪЕКТЛАР ВА УЛАРНИНГ ҲУДУДДА  
ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ .....9-13
- Фарманова Гульнара Комилевна*  
АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Г.А.ПУГАЧЕНКОВОЙ НА ТЕРРИТОРИИ  
САМАРКАНДСКОГО СОГДА ..... 14-19
- Aminov Xurmatbek Вахрат о'g'li*  
HUNARMANDCHILIK RIVOJI UCHUN YANGI IMKONIYATLAR ..... 20-25
- Мустафоев Жонибек Аралбоевич*  
“ПАХТА ИШИ”НИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТГА ТАЪСИРИ ВА УНИНГ ФОЖИАЛИ  
ОҚИБАТЛАРИ (НАВОЙИ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА) ..... 26-31
- Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li*  
O'ZBEKISTON TARIXIY TARAQQIYOTNING ZAMONAVIY BOSQICHIDA IJTIMOY DAVLATNI  
SHAKLLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY ISTIQBOLLARI .....32-36
- Маҳмудон Эркин Асқаралиевич*  
АРАБ ХАЛИФАЛИГИ ИСТИЛОСИ ДАВРИДА ФАРҒОНАДАГИ СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР ....37-45
- Назаров Комил Шамсуддинович*  
ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ МАСАЛАЛАРИ .....46-51
- Матажонов Раҳимжон Акратович*  
O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI  
HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI .....52-58
- ### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ
- Остоноқулов Азамат Абдукаримович, Султонов Омон Жума ўғли*  
ДАВЛАТ ОТМЛАРИДА БЮДЖЕТДАН ТАШҚАРИ МАБЛАҒЛАР ҲАРАКАТИ ТЎҒРИСИДАГИ  
ҲИСОБОТЛАРНИНГ АХБОРОТ ИМКОНИАТЛАРИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ ..... 59-69
- Narmamatov Ixtiyor Baxtiyorovich*  
DEVELOPMENT ADVANTAGES OF CASHLESS PAYMENTS IN THE PAYMENT SYSTEM OF  
UZBEKISTAN ..... 70-75
- Хамраев Джамшид Панжиевич*  
ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДА МАҲАЛЛИЙЛАШТИРИШНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ  
ИҚТИСОДИЙ МОҲИЯТИ, РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ ВА ЗАРУРЛИГИ ..... 76-81
- Кулибоев Азамат Шоназарович*  
ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ  
УСЛУБИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ..... 82-91
- Axmedova Nazokat Zikirillo qizi*  
KORXONA MARKETING STRATEGIYASIDA RAQAMLI STRATEGIYADAN FOYDALANISH  
USULLARI VA AFZALLIKLARI ..... 92-97

<i>Саатмуротов Шохрух</i> МИНТАҚАДА САНОАТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ БАҲОЛАШ ОМИЛЛАРИ .....	98-103
<i>Шакирова Фароғат Болтаевна</i> АҚШ ИҚТИСОДИЁТИНИНГ ИННОВАЦИОН ТИЗИМИ ОМИЛЛАРИ, ТАРКИБИ ВА РИВОЖЛАНИШ НАЗАРИЯСИ .....	104-113
<i>Кадиров Лутфулло Халимович</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ МОЛИЯВИЙ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МУАММОЛАРИ .....	114-121
<i>Ibragimova Zarema Zokirovna</i> DUNYONING IQTISODIY RIVOJLANGAN MAMLAKATLARINING BOSHQARUV TASHLILINI TASHKIL ETISH VA ULARNI ICHKI IQTISODIYOTGA TATBIQ ETISH TAJRIBASI .....	122-129
<i>Қодиров Азизжон Анварович</i> «COVID-19» ИНҚИРОЗИНИНГ ЖАҲОН ЭКОТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ .....	130-137

### **09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

<i>Sharipov Dilshod Baxshilloyevich</i> JON LOKKNING TABIIY HOLAT VA TINCHLIKKA OID QARASHLARI .....	138-145
<i>Rahmatova Xolidaxon Xolikovna</i> ХОҲА АНРОР ВАЛИЙНИНГ ТИНЧЛИК, ОСОЙИШТАЛИК ВА НАМЎНАТЛИККА ДОИР Г'ОЙАЛАРИ – ВАРҚАРОР ТАРАҚҚИЙОТ ОМИЛИ СИФАТИДА .....	146-151
<i>Орзиев Иқболжон</i> АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА СЕКУЛЯРИЗМ ОМИЛИНИНГ ИЖТИМОЙ АҲАМИЯТИ .....	152-157
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> ILMIY MUAMMOLARNI HAL ETISHDA VAHS-MUNOZARALARNING TUTGAN O'RNI.....	158-165

### **10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

<i>Israil Mukaddas Irgashevna</i> BOSMA MEDIA TILINING SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTDА O'RGANISH USULLARI .....	166-172
<i>Nishonova Xurshida Yusufjanovna</i> A'ZAM O'KTAM SHE'RIYATIDA MILLIY RUHNING IFODALANISHIDA E'TIQODIY QARASHLAR .....	173-178
<i>Маматкулова Камола Шавкат кизи</i> ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПОНЯТИЯ ПРЕЦЕДЕНТНОСТИ В ЛИНГВИСТИКЕ И ЕГО РОЛЬ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ .....	179-184
<i>Hamroyeva Dilfuza Jamolovna</i> O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARIDA YUZ SOMATIZMINING BADIY TALQINI .....	185-189
<i>Mahmudova Xushnoza Ravshanbekovna</i> OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA MOLIVAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH	

MASALALARI .....	190-195
<i>Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizi</i> ROMANDA ROVIY BOLA OBRAZI.....	196-200
<i>Mirzoyev Masudjon Kimsanovich, Niholchonova Navbahor</i> FARZONA XO'JANDIY SHE'RLARIDA MIFOLOGIK PERSONAJLAR BADIY IFODASINING XUSUSIYATLARI .....	201-206
<i>Kholiyorov Bunyod</i> THE CONDITION OF DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE USING AUTHENTIC MATERIALS IN TEACHING ENGLISH IN NON-PHILOLOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS .....	207-213
<i>Hazratqulov Mutallib Rashidovich, Gulxanova Fotima, Qarshiboyeva Muborak</i> NUTQNI IDROK ETISH QONUNIYATLARI .....	214-219

### 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Файзиев Шухрат Хасанович</i> ПОНЯТИЕ И ОСОБЕННОСТИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ .....	220-225
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI .....	226-233
<i>Safoeva Sadoqat Musoeva</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI .....	234-246
<i>Бокиев Жаҳонгир Нурматжон ўғли</i> АЛОҲИДА ТАЪЛИМ ЭҲТИЁЖЛАРИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ОЛИЙ ТАЪЛИМ ОЛИШ ҲУҚУҚИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ .....	247-253
<i>Турсунова Маликахон Улуғбековна</i> ЗАМОНАВИЙ ДАВЛАТДА ДИПЛОМАТИК ФАОЛИЯТ ШАКЛЛАРИ: ИСЛОХОТЛАР ВА ҚОНУНЧИЛИК ТАРТИБОТИГА БЎЛГАН ЭҲТИЁЖ .....	254-258

### 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Atamatov Abduxalil Salomovich</i> OLIJ TA'LIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL SOATLARNI O'QITILISHINING KOMPETENSIYAVIY O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	259-265
<i>Omarova Gavhar Sadikovna</i> HUQUQ FANINI O'QITISHDA TA'LIMNI TABAQALASHTIRISHNING PEDOGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI: DIDAKTIK O'YINLAR MISOLIDA .....	266-271
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARNING ROLI VA AHAMIYATI .....	272-277



---

<i>Kuchkarova Arofathon</i> THE IMPORTANCE OF GEOGEBRA IN ENHANCING STUDENTS' LEARNING OF MATHEMATICS AT SCHOOLS .....	278-283
<i>Tojiyeva Xolida Baxtiyorovna</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARI ADABIYOT DARSLARIDA ASAR BADIYATINI O'QITISH TARIXI .....	284-288
<i>Masharipov Ravqat Madraximovich</i> KURASH BILAN SHUG'ULLANUVCHI TALABA SPORTCHILARDA TAYYORGARLIK BOSQICHLARINI KUN VA HAFTALIK MIKROTSIKLLARDA MASHG'ULOT YUKLAMALARINI OPTIMAL ME'YORLASH .....	289-295
<i>Niyozmatov Anvar Bahodirovich</i> XORAZM XALQ O'YINLARI .....	296-303
<i>Qodirov Xasanboy Oribjonovich</i> OLIJ TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI .....	304-309
<i>Kejaboev Abdusalim Erkaboevich</i> PEDAGOGIK MENEJMENT VA ZAMONAVIJ RAHBAR KOMPETENTLIGI .....	310-315
<i>Axmadjonova Farangiz Axrorjon qizi</i> OLIJ TA'LIM MUASSASALARIDA MASOFAVIY TA'LIM MAZMUNI VA TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK - USLUBIJ TA'MINOTI .....	316-322



09.00.00-Фалсафа фанлари

**Turabova Sevara Kattaqulovna**,  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
«Ijtimoiy-gumanitar fanlar» kafedrasida dotsenti  
E-mail: [turobova.sevara@mail.ru](mailto:turobova.sevara@mail.ru)

### ILMIY MUAMMOLARNI HAL ETISHDA BAHS-MUNOZARALARNING TUTGAN O'RNI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ilmiy bahs-munozaraning ilmiy bilish jarayoni va amaliy faoliyat sohasida vujudga keladigan muammolar yechimini topish borasida maqbul usul sifatidagi funksional jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, argumentlash nazariyasining falsafiy muammolari orasida bahsning kommunikatsiya vositasi sifatida ilm-fan va ijtimoiy-siyosiy hayot tizimidagi integratsiyasini o'rganishning dolzarbligi yoritilgan

**Kalit so'zlar:** bahs, muammo, muloqot, Ilm-fan taraqqiyoti, qonuniyat, haqiqat, isbot, dialog mantig'i.

---

**Turabova Sevara Kattakulovna**  
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy  
Associate Professor, Termez University of Economics and Service

### THE ROLE OF DISCUSSIONS IN SOLVING SCIENTIFIC PROBLEMS

**Abstract.** This article analyzes the functional aspects of scientific discussion as an acceptable method for finding solutions to problems that arise in the field of scientific knowledge and practice. Also, among the philosophical problems of the theory of argumentation, the relevance of studying the integration of scientific disputes as a means of communication into the system of science and socio-political life stands out.

**Key words:** dispute, problem, dialogue, development of science, regularity, truth, proof, logic of dialogue.

---

**Турабова Севара Каттакуловна**,  
доктор философии по философии (PhD)  
доцент Термезского университета экономики и сервиса

### РОЛЬ ДИСКУССИЙ В РЕШЕНИИ НАУЧНЫХ ПРОБЛЕМ

**Аннотация.** В данной статье анализируются функциональные аспекты научной дискуссии как приемлемого метода поиска решений проблем, возникающих в сфере научного познания и практической деятельности. Также среди философских проблем теории аргументации выделяется актуальность изучения интеграции научных споров как средства коммуникации в систему науки и общественно-политической жизни.

**Ключевые слова:** спор, проблема, диалог, развитие науки, закономерность, истина, доказательство, логика диалога.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPI1342V3SI5Y2023N22>

**Kirish.** Ilm-fan sohasidagi muammoli vaziyat mavjud ilmiy tasavvurlar bilan qayd qilingan yangi faktlar o'rtasidagi ziddiyatning paydo bo'lishi yoki shu ilmiy tasavvurlarning o'zining yetarli darajada tizimga solinmaganligi, yaxlit bir ta'limot sifatida asoslanmaganligi natijasidir.

Shuni e'tirof etish kerakki, muammo yechimini to'g'ri topishda muammoli holatni to'g'ri tasavvur qila olishning o'zigina yetarli bo'lmaydi. Buning uchun muammoni hal qilishning turli xil usullari va vositalarini ham oldindan ko'ra bilish muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy bahs-munozara ilmiy bilish jarayoni va amaliy faoliyat sohasida vujudga keladigan muammolarning yechimini topish borasida eng maqbul usul hisoblanadi. Shuning uchun ilm-fan sohasida yuz bergan muayyan munozaralarni tahlil qilish, bahs-munozara muammosini o'rganishda muhim o'rin egallaydi. Masalan, fanning fundamental muammolari hisoblangan "moddaning tuzilishiga oid klassik g'oyalar va fizika bo'yicha yangi eksperimental bilimlar o'rtasidagi bahs" [8: 36], A. Eynshteyn va N. Bor o'rtasida mikroto'lqinlardagi qonuniyatlarning tabiati borasidagi bahs, biologiyadagi genetik kod va irsiyat to'g'risidagi eski tasavvurlar o'rtasidagi bahs-munozaralar bu fanlardagi inqilobiy o'zgarishlarning sodir bo'lishiga olib keldi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Insoniyatning taraqqiyoti fanning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Ilm-fan taraqqiyotida muammolar doimiy ravishda yuzaga keladi va ularning yechimi uchun turli yangi yondashuvlar, vositalar va tadqiqot usullari taklif etiladi. Bunday hodisalarni o'rganishda vujudga kelgan yangi g'oya va tasavvurlar bahs-munozara jarayonida keng qamrovli muhokama va tahlildan o'tishi hisobigagina o'zining haqiqiylikini talab qila olishi mumkin bo'ladi. A. N. Sokolov bahs fenomenining falsafiy tahlilini berarkan, bu borada o'zining shunday fikrini bildiradi: "hatto Qadimgi davr faylasuflari ham yangi va haqiqiy bilimni qo'lga kiritishning eng yaxshi vositasi deb bahs-munozara usulini hisoblashgan. Haqiqatni bahs-munozaralar orqali ochish, qarama-qarshiliklarni bartaraf etish yo'li bilan haqiqatni kashf qilish barcha kashfiyotlarga yaqinlashishning ishonchli usulidir" [9.144].

Ilm-fan taraqqiyoti qonuniyatlarini tadqiq etishning muhim vositasi, innovatsion tafakkurni shakllantirishning asosiy usullaridan biri sifatidagi diskussiyaning ahamiyatiga I. M. Sidorova o'z e'tiborini qaratib, bu borada shunday fikr bildirgan: "Diskussiya turli pozitsiya va yondashuvdagi olimlarni umumiy muammo atrofiga jalb qilish orqali ilmiy muammolarni hal etishga imkon beradi, bu esa ilmiy tadqiqot obyektivligining ortishiga, olingan natijalarning har tomonlama tekshirilishiga va muhokama maydoniga kiritilgan gipoteza va nazariyalarning faol rivojlantirilishiga olib keladi" [10: 46].

Bahs-munozaraning asosiy maqsadi muammoni hal qilish yo'llarini topish va uning yechimiga erishish uchun qarama-qarshi taraflar o'rtasida o'zaro kelishuv va hamkorlik izlashdir. Ilmiy bahs-munozara o'zining mantiqiy xarakteriga ko'ra, haqiqatni izlashga mo'ljallangan muloqotning eng uyushgan va tizimli shakli hisoblanadi. "Har bir anglangan, bilib olingan haqiqat, ilmiy va amaliy faoliyat uchun yangi harakat maydonlari, imkoniyatlari ochilganligini anglatadi" [5.129]. Garchi bu izlanishda aniq dalillar, masalan, ilgari tasdiqlangan haqiqatlar (tamoyillar, qonunlar va nazariyalar) ham ishlatilsa-da, biroq ehtimoliy mulohazalarga tayanadigan dalillashga ham tegishli e'tibor bo'ladi. Tadqiqotchi olim o'z tafakkuridagi bifurkatsion nuqtada muammo yuzasidan mavjud yechimlarning bir qancha turiga duch keladi. Uning izlanishlari, bilimlari, shuningdek, uning intuitsiyasi ham o'z navbatida eng maqbul, to'g'ri yechimni tanlay bilishiga yordam beradi. Shunisi e'tiborliki,

murakkab sistemalar to'g'risida muloqot, bahs-munozara jarayonida bildiriladigan fikr-mulohazalar va hatto qabul qilinadigan qarorlar ba'zi hollarda chuqur aqliy mushohada orqali emas, balki intuitiv yo'l bilan hosil qilinadi. Munozara ishtirokchilaridan muammoni hal qilish uchun farazlarni ilgari surish, ularning dastlabki bahosini mavjud bo'lgan bilimlar bilan tasdiqlash, induktiv metod va qiyoslash usullaridan foydalanish yo'li bilan turli farazlarni asoslash va baholash, empirik materialni tahlil qilish uchun statistik xulosalar chiqarish ham talab qilinadi. Bundan tashqari, bahs-munozara ishtirokchilari tadqiqotning kelgusi strategiyasini tahlil qilish uchun fanning inqilobiy o'zgarishlari bilan bog'liq bo'lgan fundamental muammolari bo'yicha mantiq ilmining umumiy prinsiplariga, ilmiy bilish metodologiyasi va umumiy falsafiy prinsiplarga murojaat qiladilar.

Bahs-munozara samaradorligining zaruriy sharti bo'lib, muhokama qilinadigan muammoni ochiq va aniq ifodalash, uning yechimini topish yo'lidagi turli xil yondashuvlarni yetarli darajada ishonchli dalillash, shu maqsadda ilgari suriladigan farazlar va kelgusi tadqiqot rejalarini tahlil qilish va baholash hisoblanadi.

Shunday qilib, ilmiy bahs-munozara fanning ma'lum bir sohalarida ishlaydigan, uning muammolarini tushunadigan, nazariyalarni va tadqiqot metodlarini yaxshi biladigan vakolatli fundamental mutaxassislar o'rtasidagi muloqot shakli, desak bo'ladi. Ularning bu muloqotdagi bosh maqsadi yangi muammolarni hal qilish, o'zaro tushunish va kelishuvga erishishning yangi usullarini topishdan iboratdir. Shuning uchun asosiy vazifani faqat nuqtai nazarlar qarama-qarshiligidan kelib chiqib emas, balki muammolarni hal qilishning yechimlarini topishga xizmat qiladigan kelishuvga tayanib shakllantirish kerak bo'ladi. Bunday kelishuv muammoni hamkorlikda o'rganish, axborot va ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan o'zaro fikr almashish uchun zarur sharoit yaratadi.

Fan ilmiy bilimlar tizimi emas, balki avvalo ilmiy hamjamiyatlar faoliyatidir. Fanning rivojlanish jarayonida ilmiy hamjamiyatning rolini quyidagicha tavsiflash mumkin:

Birinchidan, mazkur hamjamiyat vakillari fan maqsadlarini va o'z sohasining vazifalarini bir xil tushunadilar. Shu tariqa ular u yoki bu fanning predmeti va uning rivojlanishi haqidagi tasavvurlar tizimini tartibga keltiradilar;

Ikkinchidan, ularga universalizm xos bo'lib, buni ular o'z tadqiqotlarida va o'z hamkasblarining tadqiqotlariga baho berishda hisobga oladilar, bu yerda ular bilimlarni asoslash va isbotlashning umumiy mezonlari va qoidalariga amal qiladilar;

Uchinchidan, "ilmiy hamjamiyat tushunchasi bilimlarni jamlashning kollektiv xususiyatini qayd etadi. U bilishning kollektiv subyektini nomidan ish ko'radi"[6; 5], bilish faoliyati natijalariga kelishib baho beradi, ichki meyorlar va ideallar tizimi – fan etosini yaratadi va quvvatlaydi;

To'rtinchidan, ilmiy hamjamiyatning barcha a'zolari muayyan paradigmaga – ilmiy muammolarni qo'yish va yechish modeli (andozasi) ga amal qiladi.

Ilmiy bahs-munozarada dogmatizm, mutaassiblik, fikrlash-dagi qotib qolganlik holatlari nihoyatda salbiy rol o'ynaydi. Masalan, ilm-fan vakillari ko'pincha odatiy va barqaror bo'lib ulgurqan qarashlar va nazariyalardan voz kechishda katta qiyinchilikka duch kelishi kuzatiladi. Masalan, ma'lum ijtimoiy sharoitlar tufayli ba'zi olimlarning noto'g'riligi ayon bo'lib turgan qoidalarga qarshi tura olish uchun o'zlarida jasorat topa olmaganliklari holatlari uchrab turadi. Bunday omillarning tabiiyligiga qaramay, ularning mutlaqo bartaraf etib bo'lmaydigan holat

emasligini ham tushunish lozim va har bir vijdonli va jasoratli bo'lgan olim kishi, albatta, haqiqatga erishishning kuchli va aniq yo'llarini topa olishi shubhasiz.

Afsuski, muammolarning to'g'ri yechimidan manfaat ko'rmaydigan kishilar ham borki, ular o'zlarining nopok maqsadlariga osonlik bilan erishish yo'lida bilish jarayoni zaifliklaridan foydalanadilar. Bahs-munozaralarda bunday kishilar ko'pincha turli tuzoqlar ishlatishga moyil bo'lishadi.

Bahs-munozara fanda jiddiy muammoli vaziyatlar vujudga kelgan davrda, xususan, fan sohasida murakkab va hatto dramatik muammolar yuzaga kelgan holatlarda ijodiy izlanishning juda samarali vositasi hisoblanadi. Aynan shunday joyda odatda ko'plab muqobil ilmiy farazlar va nazariyalar yuzaga keladi va buning natijasida bilish munozarali jarayon tusini oladi.

Bahs-munozara orqali ilmiy bilish jarayonida aniq javobni darhol olish imkoni bo'lmagan hollarda savolga juda ko'p javoblar bera oladigan modellarni yaratish va ularni aprobatsiyadan o'tkazish shaklidagi tadqiqot usuli amalga oshiriladi. Ilmning yuqorida ko'rsatilgan shakldagi rivojida munozaraning tadqiqot funksiyasi amalga oshiriladi. Shuning uchun bahs-munozaraning samaradorligi muammoning yechimini topishda turli xil pozitsiyadan turib yondasha olish mumkinligida, ko'plab olimlarning ilmiy salohiyatidan maksimal darajada foydalanishda, ba'zi nuqtai nazarlarning mutlaqlashtirilishi yoki chegaralanish holatidan yiroqlashish imkoniyati borligi bilan asoslanadi. Bahs-munozaralarning obyektivligi o'rganilayotgan obyektlar, hodisalar va jarayonlarga xos bo'lgan qarama-qarshi xususiyat, munosabatlarning mavjudligi bilan ham belgilanadi. Ulardagi avval boshdan tabiatan xos bo'lgan qarama-qarshilik xususiyatlari, qarama-qarshi fikrlar, farazlar, nazariyalarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Ilmiy bahs-munozaralarning kelib chiqish sabablari ilmiy idrokka xos ziddiyatlar, paradokslar, antinomiyalarga asoslangan. Ilmiy bahs-munozaralar turli xil maqsadlarga erishish, xususan: muammoni aniqlashtirish va qo'yish, yechimini topish, ilgari surilgan nuqtai nazarni baholash, ularning haqiqat darajasini aniqlash, dalillarni va fikrlashning mantiqiy to'g'riligini tekshirish, muammoning yangi qirralarini kashf qilish va hokazolar uchun qo'llaniladi.

1. Ilmiy bahsda "haqiqat masalasi isbotlash muammosi bilan uzviy bog'liqdir. Bu, ayniqsa, fanda, uning ilmiy qonunlarini o'rnatishga qaratilgan intilishda yaxshi anglanadi" [7; 98]. Haqiqiy ilmiy munozaralar olib borilayotganda tashqi avtoritetlarga argument sifatida murojaat qilinmasligi kerak, demagogiya, tamg'a yopishtirish, sofistlik tuzoq yoki intellektual qalloblikning boshqa shakllari uchun bu yerda joy bo'lmasligi lozim.

2. L. A. Vvedenskaya ilmiy bahs-munozarani kompozitsion reja asosida tuzilgan aniq harakatlar ketma-ketligi ko'rinishidagi rivojlanish sifatida ta'kidlab o'tar ekan, ushbu harakatlarga quyidagilarni kiritadi:

3. muhokamaning predmeti va maqsadini aniqlash;
4. munozara strategiyasini tanlash va uning umumiy rejasini tuzish;
5. asosiy tezisni shakllantirish, uning isboti, konstruktiv tanqidi, qiyosi, taqqosi, muxolifatini aniqlash;
6. munozara natijasida izlanayotgan haqiqatni aniqlash;
7. munozara natijalarini umumlashtirish, yechimi topilmagan masalalarni aniqlash, ularning keyingi tadqiqi uchun vazifa va yo'nalishlarni belgilash[2;576].

Ilmiy bahs-munozaraning harakatlantiruvchi kuchini, unda tavsiya etilgan nuqtai nazarining qarama-qarshiligini o'zida aks ettiruvchi va birlashtiruvchi isbotlash va rad etish tashkil etadi. Ulardan samarali foydalanish yo'li bilan muammoni hal qilish mumkin bo'ladi.

Bahs-munozaralarning konstruktivligi va samaradorligiga ma'lum metodologik tamoyillar asosida erishiladi.

Ushbu tamoyillar orasida munozara elementlarining ko'plilik tamoyili (u nafaqat ilgari surilgan tezislariga, balki nuqtai nazarlarga, yondashuvlarga, usullarga, dastlabki taxminlarga ham tatbiq etiladi), shuningdek, tanqidiylik tamoyili (har bir ishtirokchining tanqidiy tahlil qilish va tavsiya etilgan fikrlarini rad etishni asoslash huquqi)ni o'z ichiga oladi. Muhokamaning muvaffaqiyatli kechishining zaruriy shartlariga ishtirokchilarning o'zaro bir-birlarini tushunishlari uchun bahsda ishlatiladigan tushuncha va atamalarning mazmuniga ko'ra aynanligi, bir xil ma'noda qo'llanilganligi kiradi. Shuningdek, muhokamada mo'ljallangan maqsadlarga erishishda yana quyidagi qoidalarni ham kiritish mumkin:

Birinchi, savolni to'g'ri qo'yish va munozara predmetini aniq belgilash;

Ikkinchi, muhokama qilinayotgan muammoning mohiyatidan xabardor bo'lish, ilgari surilayotgan mulohazalarni tushunarli va aniq ifodalash;

Uchinchi, holat yuzasidan aytilgan tezisni almashtirishga yo'l qo'ymaslik;

To'rtinchi, opponentlarning nuqtai nazarini aynan bir xil mazmunda idrok etish va tushunish;

Beshinchi, keltirilgan dalillarning tekshiruvchanligini ta'minlash;

Oltinchi, isbotlash va rad etishning mantiqiy qoidalarini bilish.

**Muhokama.** Aslini olganda, bu qoidalar nafaqat bironing nuqtai nazarini rad etish, balki uning noto'g'ri bo'lish sabablarini tushunish uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Munozara jarayonida yuqorida ko'rsatilgan qoidalar bilan birga muhokama madaniyatini tashkil etadigan muayyan axloqiy me'yorlarga ham rioya qilish kerak. Ushbu me'yorlar boshqalarning nuqtai nazariga izzat-hurmat bilan qarash va xolisona munosabatda bo'lish, raqibning to'g'ri bo'lgan nuqtai nazarini e'tirof eta olish, asoslangan oqilona tanqid ta'siri ostida o'z qarashlarini o'zgartirishga qodirlik, yumor hissiga ega bo'lish va hokazolarni talab etadi.

Biroq ilm-fan sohasida noilmiy maqsadlarni ko'zlab bahs-munozaralar olib borish holatlari ham uchrab turadi. Masalan, o'zining aqlililigini ko'z-ko'z qilish, aql o'yinidan bahramand bo'lish, har qanday yo'l bilan bo'lsa ham raqibning pozitsiyasini rad qilib, o'zining haq ekanligini isbotlash istagi shular jumlasidandir. Agar bunday sabablar ilmiy bahs-munozaraning asosiga qo'yiladigan bo'lsa, u holatda bahs ko'pincha samarasiz kechadi.

Ilmiy bahs-munozaraning bir qancha funksiyalari bo'lib, ular bahsni haqiqatni bilib olishning jamoaviy faoliyati orqali asta-sekin, murakkab, ziddiyatli tarzda bo'lsa-da, ammo progressiv rivojlanadigan jarayon metodi sifatida xarakterlaydi.

Ular quyidagilardan iborat:

generativ funksiya (o'rganilayotgan muammolar bo'yicha turli nuqtai nazarlarni ilgari surish);

selektiv funksiya (istiqbolli yoki anchayin ishonchli bo'lgan nuqtai nazarlarni saralash);

integrativ funksiyasi (muhokama qilinayotgan nuqtai nazarlarning ijobiy elementlari va ular bilan bog'liq tadqiqot yo'nalishlari sintezi);

korreksiyalash funksiyasi (aytilgan fikrlar, tushunchalar va dalillarni aniqlash va tuzatish);

konstitutsiyalashtiruvchi funksiya (muhokama qilingan fikrlarni qabul qilish yoki rad etish masalasini hal qilish).

Umuman olganda, hozirgi zamon ijtimoiy hayotida bahs-munozaralarning, ayniqsa, polemikalarning ahamiyati ortib borayotganligini ta'kidlab o'tish mumkin. Ularni o'rganish juda katta ahamiyatga ega, chunki u ijodiy qobiliyat va kasbiy ko'nikmalarning shakllanishi va rivojlanishiga, opponentning nuqtai nazariga qat'iy va konstruktiv munosabatda bo'la olishga, o'z shaxsiy fikrlarini ilgari surish va himoya qilish qobiliyatining takomillashuviga obyektiv ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy bahs-munozaralar tajribasi shuni ko'rsatadiki, bahs-munozaraning mantiqiy asosi muloqot mantig'i, dialog mantig'i hisoblanib, faqat bunda shaxsning o'z-o'zi bilan bo'lgan ichki muloqotigina emas, balki o'z pozitsiyalarini namoyish qila oladigan turli ishtirokchilarning jonli tashqi muloqoti ham muhim ahamiyat kasb etadi. Dialog faqat o'z pozitsiyasining haqqoniyligi asoslangandagina va boshqa fikrning xatoligi isbotlangandagina bahs xarakterini oladi. Ammo bahs bilan bahsning farqi bor. Binobarin, mutlaqo bo'sh, havoyi bahslar ham mavjud bo'lib, ular masalalarni hal qilishga, ilm-fanni rivojlantirishga hissa qo'shmaydi, aksincha, o'rta asrlarda bo'lgan puch, foydasiz tortishuvlarni eslatib turadi, ilm taraqqiyotini sustlashtiradi. Bunday vaziyatda haqiqiy bahslar va puch safstalar o'rtasidagi chegara chizig'ini o'z vaqtida chiza olish juda muhimdir.

Har qanday bahs ham ilmiy bahs xususiyatiga ega bo'lavermaydi. Ilmiy bahs ishtirokchilar o'rtasida axborot almashinuvi ahamiyatlilik darajasiga ko'ra farq qila boshlaganda, ya'ni tadqiqot mavzusidagi bilimning qimmati uning haqiqatligi bilan o'lchanganda paydo bo'ladi.

Ilmiy bahs-munozaralar haqida gap ketganda bahsni mantiqan to'g'ri yurita olish zarurligini yodda tutish lozim. Buning uchun yuksak bahs-munozara madaniyati talab qilinadi. S. R. Mikulinskiy[3; 5] unga oid quyidagi muhim jihatlarni ajratib ko'rsatgan:

savolni to'g'ri qo'ya olish va bahs mavzusini aniq belgilash zarurligi;

muxolif nuqtai nazarining mohiyatini anglay olish, o'z pozitsiyasini nafaqat asosli ifoda eta olish, balki tinglay olishni bilish, opponentlarni eshita olish qobiliyatiga ega bo'lish lozimligi.

"Ilmiy bahsning bu jihatlari haqida D. I. Mendeleyev juda o'rinli fikr bildirgan: Har doim qarshi tomon fikrining nuqtai nazariga e'tibor qila olishni biling, bu haqiqiy donolikdir" [4; 411].

Bahs samarali bo'lishi, ishtirokchilarning ortiqcha vaqt va kuchini olmasligi, boshi berk ko'chaga kirib qolmasligi uchun jarayon avvalida bahsda ishlatiladigan asosiy tushuncha va kategoriyalar haqida kelishib olish zarur, ya'ni ularga qat'iy va aniq "ishchi" ma'no berish lozim, bu amallar bahs predmetini aniq belgilab olishga yordam beradi.

Shuningdek, bahs-munozaralar jarayonida o'z muxolif-larini tanqid qilish jiddiy, qat'iy, obyektiv va rasmiy mantiqning barcha talablari va qoidalariga, xususan, fikrlashning mantiqiy asoslariga, dalil va qoidalariga javob berishi kerak bo'ladi.

Bahs madaniyati xulq-atvor me'yorlariga rioya etishni talab qiladi, chunki tanqid beg'araz va xolis bo'lishi kerak. Shu bilan birga, o'z muxoliflarini hurmat qilish va o'zaro hurmatga intilish kerak.

Psixologik omillar ham ilmiy munozaralarni o'tkazishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, haqiqatga erishish yo'lidagi boshlang'ich ehtiroslarning orqasida o'z nufuzini va mavqeyini mustahkamlash istagi yashirinmasligi lozim. Ya'ni bahsda muammoni birgalikda tanqidiy

muhokama qilishning qulayligidan foydalanib, uning salbiy sifati namoyon bo'lishiga izn bermaslik lozim. Xususan, bahsda hissiyotga berilib ketish oqibatida ishtirokchilarni emotsional jarohatlash, natijada ular o'rtasida o'zaro ishonchsizlik va hatto dushmanlik paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik darkor.

D. Bom ta'kidlaganidek, "dialogning bosh g'oyasi – shaxsiy fikrni o'zida ushlagan holda, uni birovlariga singdirmasdan, bosim qilmasdan, birgalikda tushunish yo'li bilan muloqotga kirisha bilmoqlikdir" [1; 217]. Hamkorlikdagi fikrlashda har bir ishtirokchi o'z g'oyasini olib chiqadi, individual g'oyalar jamlanib, umumnikiga aylanadi va natijada bir kishi fikrlayotganday bo'lib chiqadi. Bularning barchasi ishonchli muloqot yo'lini to'sib qo'yadigan o'ysiz egotsentrizmga barham berilgandagina sodir bo'ladi. Shuni anglagan holda ulardan foydalanishni bilish, ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy hodisalarni tahlil etishda yaxshi samara beradi.

**Xulosa.** Shunday qilib, argumentlash nazariyasining falsafiy muammolari orasida bahsning kommunikatsiya vositasi sifatida ilm-fan va ijtimoiy-siyosiy hayot tizimidagi integratsiyasining tadqiq etilishi ilmiy bahs fenomenining mantiqiy-epistemologik maqomiga oid yangicha qarashning dolzarbligini namoyon qilmoqda.

Bahs yuritishning ilmiy muammolarni qo'yish va hal etishdagi tutgan o'rni masalasi bayoni bo'yicha quyidagi yoritilgan xulosalarni ilgari suramiz:

*birinchidan*, ilmiy bahs-munozaraning ilmiy bilish jarayoni va amaliy faoliyat sohasida vujudga keladigan muammolar yechimini topish borasida maqbul usul sifatidagi funksional jihatlari tahlil qilish muhim ahamiyatga ega;

*ikkinchidan*, argumentlash nazariyasining falsafiy muammolari orasida bahsning kommunikatsiya vositasi sifatida ilm-fan va ijtimoiy-siyosiy hayot tizimidagi integratsiyasini o'rganishning dolzarbligi, ilmiy bahs fenomenining mantiqiy-epistemologik maqomini yaratishga ehtiyoj tug'diradi;

*uchinchidan*, bahs-munozaraning samaradorligi muammoning yechimini topishda turli xil pozitsiyadan turib yondasha olish mumkinligida, ko'plab olimlarning ilmiy salohiyatidan maksimal darajada foydalanishda, ba'zi nuqtai nazarlarning mutlaqlashtirilishi yoki chegaralanish holatidan yiroqlashish imkoniyati borligi bilan asoslanadi;

*to'rtinchidan*, ilmiy kommunikatsiya vositasi bo'lgan bahs fenomenining genezisini, retrospektiv asoslarini, institutsional tizimini rivojlantirish qonuniyatlarini kompleks-sistemali tahlil qilish argumentlash nazariyasini boyitib, uning nisbatan mukammal va universal nazariy-metodologik xulosalariga asos bo'ladi;

*beshinchidan* bahs-munozara orqali ilmiy bilish jarayonida aniq javobni darhol olish imkoni bo'lmagan hollarda, savolga juda ko'p javoblar bera oladigan modellarni yaratish va ularni aprotatsiyadan o'tkazish shaklidagi tadqiqot usuli amalga oshiriladi. Ilmning yuqorida ko'rsatilgan shakldagi rivojida bahs-munozaraning tadqiqot funksiyasi amalga oshiriladi;

*oltinchidan*, hozirgi zamon fani va ijtimoiy hayotida bahs-munozaralarning ahamiyati ortib bormoqda. Ularni o'rganish juda katta ahamiyatga ega bo'lib, u ijodiy qobiliyat va kasbiy ko'nikmalarning shakllanishi hamda rivojlanishiga, opponentning nuqtai nazariga qat'iy-konstruktiv munosabatda bo'la olishga, o'z shaxsiy fikrlarini ilgari surish, himoya qilish qobiliyatining takomillashuviga obyektiv ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli bahs-munozara nazariya va amaliyot uchun qimmatlidir.



**Адабиётлар/Литература/References:**

1. Бом Д. Наука и духовность: необходимость изменений в культуре//Логика: логические основы общения. Хрестоматия. – М.: “Наука”, 1994. – С. 217-218.
2. Введенская Л. А., Павлова Л. Г. Культура и искусство речи. Современная риторика. – Ростов-на Дону: Феникс, 1998. – С. 576.
3. Микулинский С. Р. Научная дискуссия и развитие науки. Роль дискуссий в развитии естествознания. – М.: “Наука”, 1986. – С. 5.
4. Менделеев Д. И. Заветные мысли: полное издание. – М.: “Мисл”, 1995. – С. 411.
5. Panjiyev S. Haqiqat tushunchasining falsafiy mohiyati. //O'zMU xabarлари, 2014. №1/4. – В. 129.
6. Пружинин Б. И. Наука как профессия и как феномен культуры// Вопросы философии. 2019, – № 8. – С. 5
7. Sharipov M. Dialektik mantiqda haqiqat va isbotlash masalasi/Alisher Navoiy va falsafa tarixining dolzarb muammolari. Ilmiy to'plam.– Т.: “Turon zamin ziyo”, 2016. – В. 98.
8. Шарипов М. Категориальные знания и их виды. – Т.: “Университет”, 1995. – С. 36-37.
9. Соколов А. Н. Проблемы научной дискуссии: логико-гносеологический анализ. – Л.: “Наука”, 1980. – С. 144.
10. Сидорова И. М. Научная дискуссия как объект философского исследования: автореферат диссертации на соиск. уч. степени доктора философских наук. – М.: 1999. – С. 46.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/5 (3)-2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).